

## OMONIM SO‘ZLARNI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

*Fayzullayeva Dildora Bahrilla qizi*

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

*Tillar fakulteti 3-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: Pardayev Sirojiddin Shokir o‘g‘li*

**ANNOTATSIYA** Maqolada o‘zbek tilshunosligidagi so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlaridan biri bo‘lgan omonim leksemalarni maktab o‘quvchilariga ta‘lim jarayonida o‘qitish metodikasi haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Omonim so‘zlar, shakldosh so‘zlar, metod, omoleksemalar, dumaloq stol metodi, tenglashtirish usuli, aqliy hujum metodi.

Maktablarda ona tili fanining o‘qitilishidan asosiy maqsad o‘quvchilarning o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri, ravon ifoda qila olishini hamda ularda muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirishga yordam berishdan iborat. Bundan tashqari o‘quvchilarda so‘z boyligi, imlo savodxonligini oshirishga yordam beradi. Ta‘lim jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishda turli metodlardan, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qo‘l keladi. O‘quvchilarga bunday usullarda dars tashkil etilsa, mavzu o‘quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishi va mavzuni tez tushunish imkonini beradi.

Leksik omonimiya — leksemalarning ifoda planidagi (talaffuzi va yozilishidagi) tenglik hodisasi. Masalan, o‘t(«olov») - o‘t(«maysa»), kamar(«qayish, ko‘ndan ishlangan belbog‘») — kamar («daryo, tog‘larda suv o‘yib ketgan chuqur joy») kabi . Omonimlar shakli bir xil, ammo ma‘nolari har xil ya‘ni bir-biriga bog‘lanmagan so‘zlardir. Omonimlar ko‘p hollarda omoleksemalar deb ataladi. Bunday leksemalar ba‘zi o‘rinlarda bir so‘z turkumiga mansub bo‘ladi. Shu sababli bunday so‘zlarning nuqtadagi grammatik shakli ham bir xil bo‘ladi. Misol uchun “bo‘sh” so‘zi ichiga hech narsa solinmagan ya‘ni bo‘sh chelak yoki bo‘sh idish ma‘nosida qo‘llanilsa yana boshqa o‘rinda “bo‘sh” so‘zi yumshoq ma‘nosida bo‘sh yer shaklida ham qo‘llaniladi. Bu ikki jumlada ham bu so‘z sifat so‘z turkumini ifodalab keladi. Omonimlar har xil so‘z turkumi vazifasida ham kelishi mumkin. „Ot“ so‘zini olsak, ayrim o‘rinda hayvon ma‘nosini, ayrim o‘rinda uloqtirmoq, otmoq ma‘nosida yana ayrim o‘rinlarda ism ma‘nosida qo‘llaniladi. Bunday hollarda ism va hayvon ma‘nosida ot so‘z turkumi vazifasini, uloqtirmoq ma‘nosida esa fe‘l so‘z turkumi vazifani ifodalab keladi.

Maktab o‘quvchilariga omonim so‘zlarni tushuntirishda turli interfaol metodlardan foydalanilsa, dars tushunarli va qiziqarli bo‘ladi. Interfaol metod – ta‘lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta‘limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma‘ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko‘pligi, o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta‘lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega . Biz omonim so‘zlar mavzusini o‘quvchilarga o‘rgatishda „Dumaloq stol“ deb



nomlangan interfaol usulni qo'llasak bo'ladi. Bu metodda xonadagi stollar o'quvchilar soniga qarab dumaloq shaklda joylashtiriladi va o'quvchilar o'zlari xohlagan joyga stol bo'ylab o'tirishadi. Stollarda har bir o'quvchi uchun raqamlangan bo'sh bilet qog'ozchalari bo'ladi. Bolalar ushbu bilet qog'ozchalariga o'zlari omonimi mavjud bo'lgan so'z yozishadi hamda ushbu yozgan so'zlarini o'zidan uzoqroqda o'tirgan o'quvchi bilan almashishadi. Hamma bilet qog'ozchasi raqamini yodida saqlab qolishi lozim bo'ladi. Biletlar almashgandan so'ng o'quvchilar o'ziga tushgan bilet qog'oz raqamini va so'zni o'qiydi. Bilet egasi o'rnidan turgan holda agar to'g'ri javob berilgan bo'lsa javobni tasdiqlaydi, ammo noto'g'ri javob bo'lsa buni inkor etib, o'zi to'g'ri javobni aytishi kerak bo'ladi. Shu tariqa hamma biletarga javob beriladi, agar o'quvchilarda ushbu so'zlarni topishda muammo paydo bo'lsa o'qituvchi javobni aytishga to'g'ri keladi. Bu metod orqali darsda ko'plab so'zlar o'rganiladi va yana eng samarali tomoni sinfdagi barcha o'quvchilarni qamray olamiz.

Omonim so'zlarni o'qitishda qo'l keladigan metodlardan yana biri „Jadval metodi“ hisoblanadi. Bu metodda uch ustundan iborat jadval tuziladi va jadvalning birinchi ustuniga omonim so'zlar, ikkinchi ustuniga turkum, uchinchi ustunga esa so'z ma'nosi deb yoziladi. O'qituvchi tomonidan oldindan o'quvchilar uchun omonim so'zlar ro'yxati tuzilib, maxsus konvertga joylashtirib qo'yilgan bo'ladi. Sinfdagi o'quvchilar har biri ketma-ket shaklda chiqib, konvertdan o'zlari xohlagan so'zni olib, omonim so'zning ma'nosiga qarab jadvalga joylashtiradi. Misol uchun, doskaga chiqqan o'quvchiga ikkita ma'nosi mavjud bo'lgan „chiq“ degan omonim so'z chiqdi deb olsak, bunda „chiq“ so'zining ikkita ma'nosini ham o'quvchi jadvalning omonim so'zlar deb yozilgan birinchi ustuniga ketma-ket shaklda joylashtirib chiqadi, keyingi turkum deb nomlanuvchi ustunga esa shu so'zning qaysi so'z turkumlar orasida omonimlik hosil qila olishini yozadi. Biz misol qilib olgan „chiq“ so'zi birinchi ma'noda taqlid so'z ma'nosida qo'llanilgani uchun taqlid so'z deb, ikkinchi ma'noda „chiq“ so'zi fe'l so'z turkumini ifodalagani uchun fe'l deb yoziladi va uchinchi ustunda esa o'quvchi ayni shu so'zni nima uchun taqlid so'z va fe'l deb yozganligini isbotlashi lozim. Misol uchun, 1.Uyga kirganimda stol ustidan soatning chiq etgan ovozi eshitganimdagina bugun soatimni uyda unutib qoldirganimni payqadim.

2.Darslaringni tayyorlab bo'lgach tashqariga chiq, sen bilan hali qiladigan ishlarimiz ko'p.

O'quvchilar ham uchinchi ustunda shu tariqa misollar bilan tushuntirib berishlari lozim. Bu metod orqali biz sinfdagi ko'p o'quvchilarni jamlay olamiz va omonim so'zlar bilan birgalikda so'zlar turkumini hamda gap tuzish qobiliyatimizni sinab ko'ra olamiz.

Shunday samarali metodlarga yana misol tariqasida Tenglashtirish usulini keltirsak bo'ladi. Omonim so'zlarning paydo bo'lishi sabablaridan ko'ra ularning qaysi so'z turkumlariga mansubligi, qanday qoidalar asosida ma'nolarini farqlanishi muhim. So'z turkumlarini teglashning qoidalarga asoslangan usulidan biz bir turkum doirasidagi omonimlikni farqlashda foydalanamiz. Bu usulda omonim so'zlar qatnashgan gaplar tuziladi va o'quvchilarga taqdim etiladi. Gaplardan o'quvchilar omonim so'zlarni topib qaysi so'zlar o'rtasida omonimlik hodisasi mavjudligini va gapdan qanday ma'no kasb etishini tasdiqlab berishlari lozim bo'ladi. Masalan,

1.Hojar buvining shinamgina hovlisidan qishin-yozin mehmonlar hech ham arimaydi.

2.Asalarilar arilar oilasing bir turiga kiradi va ularning Vatani Janubiy Afrika hisoblanadi.

3.Sattor aka katta ishning boshini tutganidan beri oyisining yuzidan kulgi arimaydi.

Tenglashtirish usulida shu tariqa gaplar beriladi va so'zlar tenglashtiriladi. Yuqorida berilgan gaplarda „ari“so'zi omonimlikni hosil qilyabdi, birinchi va uchinchi gaplarda fe'l so'z turkumi bo'lib „ketmaydi“ ma'nosini ifodalab kelsa, ikkinchi gapda esa „ari“ so'zi ot so'z turkumini ifodalab kelmoqda hamda „hasharotlarning bir turi“ degan ma'noni bildiradi. Bu usul orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyati oshadi.

Ta'limda har qanday darsni tashkil qilishda eng foydali metodlardan biri



“Aqliy hujum” metodi hisoblanadi. „Aqliy hujum” metodi – biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan usuldir. “Aqliy hujum” usulining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Aqliy hujum metodi o‘tilgan mavzuni takrorlashda, o‘quvchilar tezligini oshirishda ko‘p qo‘llaniladi. Aynan omonim so‘zlar mavzusini o‘rgatishda ham foydalansak o‘quvchilarni yanada faolroq qila olamiz. Bu usulni biz asosan mavzu tushuntirilgandan so‘ng o‘quvchilarga uyga vazifa sifatida omonim so‘zlar ro‘yxatini yodlash uchun berishimiz va keyingi darsimizda esa aqliy hujum metodi orqali yodlangan so‘zlarni so‘rasak samarali bo‘ladi. Bu usul orqali o‘quvchilar yodida ko‘p so‘zlarni saqlab qoladi va dars boshlanishida ularda faollik darajasi oshadi.

Xulosa qilib aytganda o‘qituvchi darsni tashkil etishda mana shunday interfaol usullardan va metodlardan ko‘proq foydalansa, o‘quvchilarda o‘sha fanga nisbatan munosabat o‘zgaradi hamda qiziqishlari oshadi. Agarda darsni tashkil etishda har doim bir xil usuldan foydalanilsa, o‘quvchilarda zerikish paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham har doim ko‘rgazmali qurollar va metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ona tili 5-sinfi uchun darslik. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. 115–116-betlar.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin, 2005.
3. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
4. Xudoyberganov A. O‘zbek tilining leksikologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2010.
5. Jo‘rayev N. Tilshunoslik asoslari. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2017.
6. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
7. G‘ulomov A. Nutq madaniyati va kommunikatsiya. Toshkent: O‘zbekiston, 2013.
8. Ergashev A. O‘zbek tilshunosligida so‘z va uning turlari. Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2018.

<sup>1</sup> <https://oefen.uz/uz/documents/slaydlar/umumiy/aqliy-hujum-metodi>

